



## ALISHER NAVOIY

*Qo‘qon Universiteti Andijon filiali*

*Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi*

*24\_03 guruhi talabasi Abdunabiyeva Muhabbatoy*

*+998975820629*

*@muhabbatoyabunabiyeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon adabiyoti va madaniyatining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida bat afsil ma’lumot berilgan. Unda shoirning asarlari, ularning mazmuni, tarixiy va madaniy ahamiyati, hamda Navoiy ijodining hozirgi zamondagi o’rni yoritilgan. Maqola yosh avlodni ma’naviyatga chorlovchi adabiy merosimizga bo’lgan qiziqishni oshiruvchi ilmiy-tarixiy manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar:** Alisher Navoiy, ijodi, xamsa, jahon adabiyoti, Lison ut’Tayr, Muhokamat ul-lug’atayn, ma’naviyat, insonparvarlik, shoir va mutafakkir.

**Annotatsion:** This article provides detailed information about the life and creative activity of Alisher Navoiy a great representative of world literature and culture. It covers the poet’s works, their content, historical and cultural significance and the relevance of Navoi’s heritage in the present day. The article serves as a scientific and historical source that encourages the younger generation to appreciate our literary heritage and contributes to their spiritual growth.

**Key words:** Alisher Navoi, creativity, ghazals, world literature, Lison ut-Tayr, Muhokamat ul-lug’atayn, spirituality, humanity, poet, thinker

### KIRISH

Navoiy hayoti va ijodi

Alisher Navoiy (1441-1501)-buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi. To’liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiy taxallusi ostida chig’atoy (eski o‘zbek tili) hamda forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. G’arbda chig’atoy adabiyoti hisoblanmish o‘zbek hamda jahon adabiyotining eng yirik namoyondasi. Bolalikdayoq



Farididdin Attorning Mantiq ut-Tayr'asarini yod olgan. Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan. Yana asarlariga e'tibor qaratsak, "Muhokamat ul'Lug'atayn ("ikki til muhokamasi", 1469) □ Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlaridan biri. Navoiy "ikki til muhokamasi " asarida o'sha davrining qudratini, o'sha zamonning adabiy tillari qatoridan o'rinn olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Yana bir asari Lison ut'Tayr (arab. □"Qush tili") □ Alisher Navoiyning dostoni 1498-99-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning "Mantiq ut-Tayr" asari ta'sirida yozilgan. Bundan tashqari Navoiy 1480-yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o'z hisobidan bir necha madrasa, 17 ta masjid, 10ta so'fiylar turar joyi va boshqalarni qurdiradi.

#### Navoiyning jahon adabiyotida tutgan o'mni

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek, balki fors-tojik va turkiy adabiyotlarining ham yirik naomoyondasi hisoblanadi. Uning turkiy tilda yozilgan asarlari ayniqsa muhim bo'lib, bu tilning adabiy imkoniyatlarini kengaytirdi va uni fors tilidagi adabiyot bilan tenglashtirdi. Navoiy shuningdek, fors tilidagi she'riyatni o'z turkiy tilidagi asarlari bilan boyitib, uni yanada nafislashtirdi.

#### Navoiyning mashhur xamsasi

Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Besh dostonining hajmi 60 000 ga yaqin misrani tashkil etadi. 1483-1485-yillar davomida Navoiy o'z ichiga besh dostonni olgan Xamsa' asarini yaratgan. Hayrat ul-Abror' (yaxshi kishilarning hayratlanishi), Farhod va Shirin', Layli va Majnun', Sabbayi Sayyor' (Yetti sayyora), Saddi Iskandariy' (Iskandar devori). Navoiy Xamsa'sining yaratilishi XV asarda Xuroson eli uchun favqulodda shodumonlik va saodat sifatida qabul qilindi. Abdurahmon Jomiy va Husayn Boyqaroning hayrat va yuksak e'tiofi ushbu haqiqatga dalildir.

#### Navoiy g'azallarini ma'nosi va mazmuni

G'azal haqida ma'lumot bersam, g'azal (arabcha: oshiqona so'z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish)'Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr "G'azal" atamasi dastlab VIII-IX asarlarda arab she'riyatida paydo bo'lган.

Hayotim bodasidin sargaoronmen asru, ey soqiy,

Qadahqa zahr qotil quy, dog'i daf' et xumorimni



Ya'ni hayot bodasi ichib boshim og'irdur, ey soqiy, qadahga zahar quyib bergen-da mening boshim og'rig'ini daf et. Chunki bu dunyoda o'lmay turib tinchimak mumkin emas, shu bois meni dardlardan ozod qilmoqchi bo'lsangiz, boru yo'g'imni yoqing.

### Xulosa

Alisher Navoiy o'zining betakror ijodi va falsafasi bilan faqat o'zbek adabiyotiga emas, balki butun jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Uning asarlari nafaqat o'z davrining ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiradi, balki insoniyatning ma'naviy, axloqiy va ruhiy qadriyatlariga ham boylik kiritadi. Navoiy nafaqat o'zining zamondoshlari, balki keyingi avlodlar uchun ham buyuk bir adabiy meros qoldirdi va uning ta'siri jahon adabiyotida davom etmoqda.

Navoiy'bu jahon adabiyotining yirik namoyondasi bo'lib, uning ijodi har doim yuksak qadrlanadi va u dunyo miqyosida e'tirof etilgan adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga jalb qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. QODIROV A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi)
2. Qodirov A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Universit Research Base, 857-860
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqir va taqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149
4. Qodirov, A. Inomjonova, M. & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Hayka n texhonorns b cobpemehhom mup, 4(5), 36-38
5. O'G'LI, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJOD MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 144-149
6. Kobilova, Z. (2022). Amiriyl and fazliy. Asian Journal of



Multidimensional Research, 10(9), 271-276

7. Kobilova, Z . ( 2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al G‘azali